

BIR-BIRIMIZNI TUSHUNISHNI O'RGANAMIZ



Biz har xil odamlarmiz. Har birimizning o'z fe'l-atvorimiz bor, kayfiyatimiz ham har xil bo'ladi. Bizning istaklarimiz va qiziqishlarimiz ham turlicha bo'lishi mumkin. Shu bois har birimiz o'zimizcha yo'l tutamiz.



Rasmlarga qarang. Madinaning kayfiyati qanday ekan?



1



Siz hozir qanday kayfiyatdasiz?
O'rtog'ingiz-chi?



Bir kuni Aziz eng yaqin sinfdosh o'rtog'i bilan urishib qoldi.

Azizning rosa jahli chiqib turgan edi, Madina kelib:

– Aziz, doskani artishga yordamlashib yubor, – dedi.
– Bor-ey! Kerak bo'lsa, o'zing art, – deya qo'rslik qildi Aziz.

Ustoz buni eshitib qolib, Azizni yoniga chaqirdi.

– O'rtog'ing bilan urishib qolganing uchun jahling chiqyapti-a? – so'radi ustoz.

– Shuning uchun Madinaga ham qo'pol gapirib, uni xafa qilding.

Aziz indamay, yerga qarab turaverdi.

– Bilaman, sen bunday qilishni xohlamaganding. Jahldan tushib, yarashish uchun nima qilish kerakligini aytaymi?

– Mayli, – dedi Aziz sekin.

– Madinadan kechirim so'ragin. Shunda jahling bosiladi. Keyin o'rtog'ing bilan ham gaplashib olasan.

Do'stlik har qanday janjal, arazdan ustun. Bu ish qo'lingdan keladi, men senga ishonaman.



1. Nima uchun Azizning jahli chiqib turgan edi?
2. Madina Azizdan yordam so'raganida u qanday kayfiyatda edi?
3. Ustoz Aziz Madinani xafa qilishni xohlamaganini qayerdan bildi?
4. Ustoz Azizga qanday maslahat berdi?
5. Nima deb o'ylaysiz, keyin nima bo'ldi?



O'ylab ko'ring va gaplarni to'ldiring.

Endi men insonning kayfiyati ... bilib oldim.
O'rtog'imning kayfiyati yomon bo'lsa, men ...
Men ... o'rganmoqchiman.



Foydalanish uchun berilgan soʻzlar yordamida savollarga javob bering. Oʻzingizning misollaringizni keltiring.

1-vaziyat

Bir odamning kayfiyati yaxshi yoki yomonligini nimaga qarab bilsa boʻladi?

Foydalanish uchun soʻzlar:

qovogʻini soladi, depsinib turadi, kulib turadi, noliydi, savolga javob bermaydi, hazillashadi, qoʻpollik qiladi, suhbatga aralashadi, teskari qarab oladi, suhbatdoshini tinglaydi, yigʻlaydi, savollar beradi, xoʻrsinadi, qiziqish bildiradi, baqiradi.



2-vaziyat

Kayfiyati yaxshi odam nimalarni his qiladi?

Kayfiyati yomon boʻlganda-chi?

Foydalanish uchun soʻzlar:

qaygʻu, sogʻinch, quvonch, xafagarchilik, charchoq, gʻayrat-shijoat, qiziqish, gʻazab, oʻziga ishonch, qoʻrquv, afsuslanish.



Voqea-hodisalarni bir necha kun kuzatib, kayfiyatingiz qandayligini belgilang.



**Yomon
kayfiyat**



**Yaxshi
kayfiyat**



A'lo kayfiyat

Nº	Hodisa	Belgi
1	Qiyin masalani yechdim	
2	Daftarimni yo'qotib qo'ydim	

